
QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Qonunchilikdagi yangiliklar

Prezident tomonidan “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi Qonun (O’RQ-931-son, 05.06.2024 y.) imzolandi

Qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg’armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Qonunda davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to’qnashuvi, manfaatlar to’qnashuvini tartibga solish bo’yicha maxsus bo’linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar kabi asosiy tushunchalar kiritildi.

Quyidagi shaxslar davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar deb e’tirof etiladi:

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o’sha yuridik shaxs;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo’lsa, o’sha yuridik shaxs.

Qonunga ko’ra, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to’qnashuvi bilan bog’liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 6 oy o’tgach kuchga kiradi.

Qonunning to’liq matni: <https://lex.uz/pdfs/6952742>

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-06-06 15:12:24